

**KRITERIAL VA SHAKLLANTIRUVCHI (FORMATIV) BAHOLASHNING
O‘QUVCHILAR ICHKI MOTIVATSIYASI HAMDA O‘Z-O‘ZINI NAZORAT QILISHIGA
PSIXOLOGIK TA’SIRI**

Reyimbaeva Ayzada Maxmut qizi

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining 1-bosqich talabasi
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri)*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kriterial va shakllantiruvchi (formativ) baholash tizimining o‘quvchilar ichki motivatsiyasi hamda o‘z-o‘zini nazorat qilish (samoregulyatsiya) qobiliyatlariga ko‘rsatadigan psixologik ta’siri tahlil qilingan. An’anaviy baholashdan farqli o‘laroq, kriterial va formativ yondashuvlar o‘quvchida muvaffaqiyatsizlik qo‘rquvini hamda xavotirlik darajasini kamaytirib, "o‘sinh fikrlash tarzi"ni (growth mindset) shakllantirishi yoritilgan. Maqolada mazkur baholash turlarining o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish samaradorligini mustaqil tahlil qilish, metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish va tashqi rag‘batlardan ichki motivatsiyaga o‘tishdagi psixologik mexanizmlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *kriterial baholash, shakllantiruvchi baholash, formativ baholash, ichki motivatsiya, o‘z-o‘zini nazorat qilish, psixologik ta’sir, o‘sinh fikrlash tarzi, metakognitsiya.*

Zamonaviy ta’lim paradigmasida o‘quvchi shaxsining intellektual rivojlanishi bilan bir qatorda, uning mustaqil fikrlashi, subyektiv faolligi va umrbod bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyojini shakllantirish birlamchi vazifaga aylandi. An’anaviy ta’lim tizimidagi faqat yakuniy natijani (raqamli bahoni) qayd etishga yo‘naltirilgan yondashuv ko‘p hollarda o‘quvchilarda “baho uchun o‘qish” refleksi, ya’ni tashqi motivatsiyani kuchaytirib, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish va xavotirlik darajasining oshishiga olib keladi. Pedagogik psixologiyada baholash shunchaki nazorat vositasi emas, balki ta’lim sifatini hamda o‘quvchi shaxsini dinamik tarzda boshqaruvchi psixologik drayver hisoblanadi.

Shu bois, ta’lim jarayoniga kriterial va shakllantiruvchi (formativ) baholashni joriy etish o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini (faoliyatning o‘zidan zavq olish va qoniqish hissi) hamda o‘z-o‘zini nazorat qilish (samoregulyatsiya — o‘z o‘quv faoliyatini mustaqil rejalashtirish va boshqarish) mexanizmlarini ishga tushirishda subyektiv ahamiyat kasb etadi. Psixologiyadagi "O‘z-o‘zini belgilash nazariyasi" (Self-Determination Theory - E.Deci, R.Ryan) nuqtayi nazaridan, inson ichki motivatsiyasi uning muxtoriyat (erkinlik), kompetentlik (o‘z ishinig ustasi bo‘lish) va boshqalar bilan aloqa bog‘lash ehtiyojlari qondirilganda yuksaladi [1]. Kriterial baholash o‘quvchiga o‘z yutuq va kamchiliklarini shaffof mezonlar asosida ko‘rish imkonini berib, undagi kompetentlik tuyg‘usini oshirsa, formativ baholash dars davomidagi doimiy aks-

sado (teskari aloqa) orqali muvaffaqiyatsizlik qoʻrquvini yoʻqotadi va K.Dvek taʼkidlagan "oʻsish fikrlash tarzi" (growth mindset)ni shakllantiradi [2].

Oʻquvchining oʻz-oʻzini nazorat qilishi esa metakognitiv koʻnikmalar, yaʼni oʻz bilish jarayonlarini tushunish va boshqarish bilan bevosita bogʻliqdir. Formativ baholash muhitida oʻquvchi shunchaki obʼekt emas, balki oʻz bilimini baholovchi faol subʼektga aylanadi. Bu esa oʻsmirlik va kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning irodaviy sifatlarini hamda oʻz-oʻziga boʻlgan psixologik bahosini (adekvat oʻz-oʻzini baholash) toʻgʻri shakllantirish imkonini beradi.

Oʻzbekiston Respublikasida uchinchi Renessans poydevorini yaratish sharoitida taʼlim tizimini tubdan isloh qilish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish davlat siyosatining eng ustuvor yoʻnalishi etib belgilangan. Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan strategik hujjatlarda taʼlim mazmunini oʻzgartirish bilan birga, oʻquvchilar bilimini baholashning shaffof va obʼektiv tizimlarini yaratishga alohida urgʻu berilmoqda.

Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda taʼlim sifatini oshirishga qaratilgan farmon va qarorlarida, jumladan, umumiy oʻrta taʼlim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, yangi Milliy oʻquv dasturini amaliyotga joriy etish borasidagi topshiriqlarida baholash tizimini isloh qilish mexanizmlari aniq koʻrsatib oʻtilgan. Mazkur hujjatlarda oʻquvchilarda faqat tayyor maʼlumotlarni yodlash (reproduktiv fikrlash) mexanizmidan mutloq voz kechib, ularda XXI asr koʻnikmalari deb ataluvchi tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, kollaboratsiya (jamoada ishlash) va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish vazifasi qoʻyilgan.

Prezident qarorlarida belgilanganidek, maktablarda taʼlim sifatini nazorat qilish xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS, PIRLS) talablariga integratsiya qilinishi lozim. Bu integratsiyaning markazida esa aynan kriterial va shakllantiruvchi baholash metodologiyasi turadi. Davlat rahbariyati tomonidan ilgari surilgan "Xalq taʼlimini rivojlantirish dasturi" doirasida oʻqituvchilardan oʻquvchiga faqat jazolovchi yoki ragʻbatlantiruvchi raqam (baho) qoʻyish emas, balki uning individual rivojlanish traektoriyasini monitoring qilib borish talab etilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, maktab amaliyotiga joriy etilayotgan formativ va summativ baholash tizimlarining psixologik komponentlarini oʻrganish, ushbu islohotlarning oʻquvchi shaxsining ichki intilishlari va psixologik salomatligiga qanchalik ijobiy taʼsir koʻrsatayotganini ilmiy tahlil qilish bugungi kunning kechiktirib boʻlmas dolzarb muammosidir.

Ushbu tadqiqotning bosh maqsadi — umumiy oʻrta taʼlim muassasalari oʻquvchilarida kriterial va shakllantiruvchi (formativ) baholash yondashuvlarining ularning ichki motivatsiyasi tizimi hamda oʻz-oʻzini nazorat qilish (samoregulyatsiya)

ko'nikmalarining rivojlanishiga ko'rsatadigan psixologik ta'sir mexanizmlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash va empirik (tajriba-sinov) yo'li bilan aniqlashdan iborat.

Tadqiqot orqali baholashning an'anaviy tizimidan kriterial tizimga o'tish jarayonida o'quvchining shaxsiy motivatsion sohasi qanday o'zgarishlarga uchrashini, xavotirlanish darajasining pasayishi va ta'lim jarayonidagi subyektiv faolligini qay darajada ta'minlanishini psixologik determinatsiya nuqtayi nazaridan ochib berish ko'zda tutilgan.

Belgilangan maqsadga erishish va tadqiqot gipotezasini tekshirish uchun quyidagi tizimli ilmiy va amaliy vazifalarni bajarish rejalashtirilgan:

1. Nazariy-metodologik tahlil: Pedagogik va psixologik adabiyotlar, shuningdek, zamonaviy xorijiy tajribalar doirasida kriterial hamda shakllantiruvchi baholashning o'quvchi shaxsiga, uning emotsional va kognitiv sohasiga ta'siriga oid ilmiy yondashuvlarni tizimli tahlil qilish va umumlashtirish.

2. Kriterial baholashning psixologik ta'sirini o'rganish: Kriterial baholashning shaffoflik, adolatlilik va oldindan berilganlik prinsiplari o'quvchilarda o'z-o'zini ob'ektiv baholash (*self-assessment*) hamda o'z faoliyatini tuzatish ko'nikmalarini qaysi psixologik omillar (masalan, o'ziga bo'lgan ishonch, muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi) orqali faollashtirishini aniqlash.

3. Formativ baholash va ichki motivatsiya aloqadorligini tadqiq etish: Formativ baholash jarayonidagi muntazam va konstruktiv teskari aloqa (*feedback*)ning o'quvchining ichki motivatsiyasiga (bilishga bo'lgan qiziqish, muammoni mustaqil yechishga bo'lgan ehtiyoj) ta'sir darajasini empirik metodlar yordamida o'rganish.

4. Xavotirlik va emotsional holat dinamikasini tahlil qilish: Yangi baholash tizimining o'quvchilar psixologik salomatligiga, xususan, an'anaviy baholashdagi muvaffaqiyatsizlikdan qo'rquv, darsdagi situativ xavotirlik darajasini pasaytirishdagi rolini differensial (yosh va gender xususiyatlarini hisobga olgan holda) tahlil qilish.

5. Amaliy tavsiyalar ishlab chiqish: Tadqiqot natijalariga tayangan holda, umumta'lim maktablari o'qituvchilari, xalq ta'limi metodistlari va maktab psixologlari uchun o'quvchilarning ichki motivatsiyasi va samoregulyatsiyasini oshirishda kriterial hamda formativ baholash imkoniyatlaridan unumli foydalanish bo'yicha amaliy-psixologik tavsiyalar va metodik qo'llanma loyihasini ishlab chiqish.

Ta'lim tizimida uzoq yillar davomida hukmronlik qilgan an'anaviy besh ballik baholash yondashuvi o'quvchining shaxsiy rivojlanish dinamikasini chetda qoldirib, faqatgina ma'lum bir vaqtdagi reproduktiv bilim darajasini boshqalar bilan qiyoslashga asoslangan edi. Pedagogik psixologiyada normativ baholash deb ataluvchi ushbu model sinfda sog'lom bo'lmagan raqobat muhitini yuzaga keltirib, o'quvchilarni tabaqalanishiga va ularning o'z-o'ziga bo'lgan psixologik bahosining pasayishiga olib keladi. Kriterial va shakllantiruvchi (formativ) baholash tizimi esa ushbu paradigmani tubdan o'zgartirib, baholashning jazolash funksiyasini rivojlantirish va qo'llab-

quvvatlash funksiyasiga transformatsiya qiladi. Kriterial yondashuvda o'quvchining yutuqlari boshqa sinfdoshlarining natijalari bilan emas, balki hamma uchun shaffof, oldindan belgilangan va tushunarli bo'lgan mezonlar asosida taqqoslanadi. Formativ baholash esa ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida, o'quvchiga o'z o'rganish trayektoriyasini doimiy ravishda monitoring qilib borish va xatolar ustida mustaqil ishlash imkonini beruvchi psixologik drayver vazifasini o'taydi.

Mazkur transformatsiyaning tub mohiyatini taniqli psixolog Kerol Dvekning "Fikrlash tarzi konsepsiyasi" (Mindset Theory) orqali chuqurroq anglash mumkin. An'anaviy raqamli baholash o'quvchilarda intellektual qobiliyatlar o'zgarmas va tug'ma bo'ladi degan "qotib qolgan fikrlash tarzi"ni (fixed mindset) shakllantirsa, kriterial va formativ yondashuvlar "o'sish fikrlash tarzi"ni (growth mindset) yuzaga keltiradi. Bunday muhitda o'quvchi har qanday xato yoki muvaffaqiyatsizlikni o'z shaxsining intellektual zaifligi deb emas, balki bilim olish jarayonining tabiiy, zaruriy va tuzatish mumkin bo'lgan bosqichi sifatida idrok eta boshlaydi. Bu esa o'quvchida fanga va ta'lim faoliyatiga nisbatan ijobiy psixologik munosabatni shakllantiradi [3].

Ushbu jarayonda o'quvchining ichki motivatsiyasi tizimida ham jiddiy sifat o'zgarishlari ro'y beradi. Edvard Desi va Richard Rayanning "O'z-o'zini belgilash nazariyasi"ga ko'ra, insonning ichki intilishlari va faolligi uning muxtoriyat (erkinlik), kompetentlik va boshqalar bilan aloqa bog'lash kabi fundamental psixologik ehtiyojlari qondirilganda maksimal darajaga yetadi [4]. Kriterial baholash tizimida mezonlarning oldindan ochiq e'lon qilinishi o'quvchida muxtoriyat tuyg'usini uyg'otadi; u o'ziga qo'yilayotgan talablarni aniq bilgani sababli, yakuniy natija o'qituvchining subyektiv kayfiyatiga emas, balki o'zining individual mehnatiga bog'liqligini anglaydi va unda "ichki lokus nazorati" kuchayadi. Shuningdek, formativ baholash doirasidagi muntazam va konstruktiv teskari aloqa (feedback) o'quvchining kompetentlik ehtiyojini qo'llab-quvvatlaydi. O'qituvchi faqat xatoni qayd etib qolmasdan, balki o'quvchining yutuqlarini e'tirof etishi va keyingi o'sish nuqtalarini ko'rsatishi o'quvchida o'z kuchiga bo'lgan ishonchni orttiradi, natijada "baho uchun o'qish" kabi tashqi motivatsiyadan bilim olish jarayonining o'zidan zavqlanish kabi ichki motivatsiyaga o'tish ta'minlanadi [5].

Shu bilan birga, formativ baholash o'quvchilarda samoregulyatsiya, ya'ni o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarishning metakognitiv mexanizmlarini faollashtiradi. Barri Zimmermanning samoregulyativ ta'lim modeliga ko'ra, o'quv jarayoni rejalashtirish, amaliy ijro va refleksiya bosqichlaridan iborat bo'lib, formativ baholash ushbu siklning har bir bo'g'inida katalizator bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tizimning tarkibiy qismlari hisoblangan o'z-o'zini baholash (self-assessment) va tengdoshlarni baholash (peer-assessment) amaliyoti o'quvchini ta'lim ob'ektidan faol sub'ektga aylantiradi. O'quvchi o'z ishini tayyor mezonlar bilan solishtirish jarayonida o'zining kognitiv jarayonlarini tashqaridan kuzatish, tahlil qilish va tanqidiy baholash

ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tengdoshlarini baholash esa sinfda hamkorlik (kollaboratsiya) va ijtimoiy o'rganish muhitini yaratib, o'quvchilarga bir-birlarining intellektual strategiyalaridan namuna olish va o'z faoliyatini obyektiv korreksiya qilish imkonini beradi [6].

Muammoning emotsional-irodaviy komponentiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, kriterial va formativ baholashning akademik xavotirlik darajasini pasaytirishdagi roli beqiyosdir. An'anaviy jazolovchi nazorat muhitida yuqori stress tufayli bosh miyaning emotsional markazi bo'lgan bodomsimon tana faollashib, mantiqiy fikrlash va xotirani boshqaruvchi prefrontal po'stloq faoliyatini bloklaydi. Formativ baholash muhitida esa psixologik xavfsizlik ta'minlanadi, chunki bu yerda xato qilish jazolanmaydi, aksincha, o'rganishning asosi hisoblanadi [7]. Akademik xavotirlikning kamayishi o'quvchiga emotsional bosimsiz, erkin va ijodiy fikrlash imkonini beradi, undagi ichki intilishlarni uyg'otadi va maktab muhitida o'zini psixologik jihatdan qulay his qilishini kafolatlaydi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimida kriterial va shakllantiruvchi (formativ) baholash uslubiyotining keng joriy etilishi shunchaki pedagogik nazorat vositasining o'zgarishi emas, balki o'quvchi shaxsining motivatsion, kognitiv va emotsional sohalarini sog'lomlashtirish hamda rivojlantirishga qaratilgan chuqur psixologik transformatsiyadir. An'anaviy jazolovchi va faqat yakuniy raqamli ko'rsatkichga yo'naltirilgan baholash modelidan shaffof mezonlarga asoslangan hamda o'rganish jarayonining o'zini qo'llab-quvvatlovchi yondashuvga o'tish o'quvchilar faoliyatida muhim burilish yasaydi. Bu o'zgarish birinchi navbatda maktab muhitida eng ko'p uchraydigan akademik xavotirlik, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish va stress holatlarini sezilarli darajada kamaytirib, dars jarayonida chinakam psixologik xavfsizlik muhitini ta'minlaydi. O'quvchi xato qilishni ayb deb bilmaydigan, aksincha, uni intellektual o'sish imkoniyati va rivojlanish bosqichi sifatida qabul qiladigan "o'sish fikrlash tarzi" muhitida kamol topadi.

Psixologik mexanizmlar tahlili shundan dalolat beradiki, baholash mezonlarining oldindan ochiq va tushunarli bo'lishi hamda o'qituvchi tomonidan beriladigan konstruktiv teskari aloqa o'quvchilarning muxtoriyat hamda kompetentlik kabi fundamental psixologik ehtiyojlarini to'liq qondiradi. Natijada o'quvchilarda tashqi bosimlar yoki faqat yuqori baho olish, sinfdoshlari oldida maqtanish uchun o'qish kabi tashqi motivatsion drayverlar susayib, ularning o'rnini fanga bo'lgan shaxsiy qiziqish, muammolarni mustaqil yechishdan zavqlanish hamda ichki intilishlar tizimi egallaydi. Shu bilan birga, mazkur tizimning tarkibiy qismlari hisoblangan o'z-o'zini baholash va tengdoshlarni baholash amaliyoti o'quvchilarning metakognitiv ko'nikmalarini hamda samoregulyatsiya (o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarish) qobiliyatlarini faollashtiradi. O'quvchi endilikda ta'lim jarayonida shunchaki ma'lumot qabul qiluvchi passiv ob'ektdan o'z harakatlarini mustaqil rejalashtirish, oraliq natijalarni obyektiv tahlil

qilish va o'quv strategiyalarini vaziyatga qarab korreksiya qilish qodir bo'lgan faol sub'ektga aylanadi.

Kriterial va shakllantiruvchi baholash modelini umumta'lim maktablari amaliyotiga tizimli va izchil tatbiq etish bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ta'lim islohotlarining bosh g'oyasiga to'liq mos keladi. Ushbu yondashuv mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan, o'zining kuchli va zaif tomonlarini obyektiv baholay oladigan hamda hayoti davomida mustaqil bilim olish ko'nikmalariga ega komil shaxsni tarbiyalash asosi bo'lib xizmat qiladi. Tizimning amaliy samaradorligini yanada oshirish uchun maktab psixologlari va pedagoglarining o'zaro hamkorligini kuchaytirish, o'qituvchilarni konstruktiv teskari aloqa berishning psixologik qonuniyatlariga o'rgatish hamda o'quvchilarda adekvat o'z-o'zini baholash madaniyatini shakllantirishga qaratilgan metodik qo'llanmalarni muntazam boyitib borish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni.
4. G'oziyev E.G'. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: "O'qituvchi", 2011. – 224 b.
5. Sharipov Sh.S. O'quvchilar bilish faolligini va mustaqilligini rivojlantirishda shakllantiruvchi baholashning o'rni // Zamonaviy ta'lim. – Toshkent, 2022. – № 5. – B. 12-18.
6. Подласый И.П. Педагогика: 100 вопросов - 100 ответов: учеб. пособие для вузов. – Москва: ВЛАДОС-пресс, 2004. – 365 с.
7. Zimmerman B. J. Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview // Theory Into Practice. – 2002. – Vol. 41, No. 2. – pp. 64-70.